

## FINLANDIYA VA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINING INTEGRATSIYALASHUV JARAYONI

**Abdirahimov Azamatbek Ahror o'g'li**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya iuniversiteti,  
Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti talabasi.  
+998971854554 [abdirahimovazamatbek@gmail.com](mailto:abdirahimovazamatbek@gmail.com)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10077183>

**Annotatsiya:** So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish borasida ko'plab islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, dunyoning eng yetakchi ta'lim tizimi hisoblangan Finlandiya tajribasi asosida ko'plab o'quv dasturlari tuzilmoqda. Ushbu maqolada Finlandiya ta'lim tizimining rivojlanish tarixi va O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshiriligi kerak bo'lgan ishlar to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** umumta'lim, ilmiy tadqiqot, qo'shma dasturlar, akademik innovatsiyalar.

### **Kirish**

Ta'kidlash joizki, so'ngi yillarda O'zbekiston respublikasi jadal iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda va bu o'zgarishlarning tub zamirida yaxshi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan malakali kadrlar xizmati beqiyosdir. Mamlakatimiz va fuqoralarimizning farovonligini yanada yuksaltirish uchun jahon talablariga to'laqonli javob bera oladigan ta'lim tizimini yaratish, shuningdek o'z sohasining yetuk egalarini yetishtirish muhim hisoblanadi. Prezident shavkat Mirziyoyev takidlaganidek: Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm fan, ta'lim va tarbiyadir. Bu talablarni hisobga olgan holda O'zbekistonda ta'lim tizimini takomillashtirish, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, yaqindan hamkorlik qilish va zamonaviy o'quv dasturlarini tuzish borasida qilinayotgan ishlar ahamiyatga molik. Davlat rahbarining topshirig'iga binoan ta'lim sohasida finlandiya tajribasini chuqur o'rganish va uni amaliyotda tadbiiq etish uchun ishchi guruh tuzildi.

### **Finlandiya ta'lim tizimi**

Finlandiya davlati yaqindagina mustaqilliklikni qabul bo'lsada ta'lim sohasida ko'plab yutuqlarga erisha oldi. Bugungi kunda Finlandiya ta'lim bo'yicha dunyoda yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Finlandiyalik o'quvchi - yoshlarning ilmiy ko'rsatkichlari doimiy tarzda xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Bunga asosiy omil sifatida malakali o'qituvchilarni tayyorlashni keltirish mumkin Finlyandiya milliy o'quv dasturi keng qo'llanma bo'lib, o'qituvchilarga o'z uslubi va fikrlarini sinfda ishlatishiga imkon beradi. Bu Finlyandiya ta'lim tizimining o'z o'qituvchilariga bo'lgan ishonchiga asoslanadi. va shuning uchun o'qituvchilik mamlakatda juda obro'li va sharaflil kasb hisoblanadi. Ushbu omil Finlyandiya ta'lim tizimini butun dunyoga mashhur qilishga va xalqaro ta'lim reytinglarida yuqori o'rinlarni egallashga xizmat qilmoqda.

### **O'zbekistonda ta'lim tizimi qanday?**

So'ngi yillarda O'zbekiston ta'lim sohasida sifatni oshirishga e'tibor qaratilayabdi. Mamlakat har bir fuqaroni ta'lim bilan qamrab olish va savodxonlikni oshirish borasida sezilarli darajada yutuqlarga erishdi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda savodxonlik darajasi 99 foizni tashkil etadi va bu Markaziy Osiyoda eng yuqori ko'rsatkich sanaladi. Bundan tashqari, hukumat o'qituvchilar malakasini oshirish va o'quv dasturlarini ishlab chiqishga katta sarmoya kiritmoqda. Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi

prezidentining “oliy ta’lim tizimini 2030-yilga qadar rivojlantirish” konsepsiyasi tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida bazi ustuvor vazifalar belgilab olindi. Bularga O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini maamlakatimiz bayroqdoriga aylantirish. Respublikada kamida 10ta ta’lim muassasini xalqaro e’tirof etilgan reytinglarda yuqori o‘rinlarga ko‘tarish, shuningdek, oliy ta’lim tizimini bosqichma bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish kabi misollarni keltirish mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, hali O‘zbekistonda ta’limni tizimini yaxshilash bo‘yicha ko‘p ishlar qilinishi kerak va bu ishlarni amalga oshirishda finlandiya tajribasini qo‘llash muhimdir, chunki Finlyandiya ta’lim tizimi boshqa davlatlar uchun namunadir. Bu tenglik, inklyuzivlik va talabalar farovonligiga qaratilgan tizimdir. Bu 21-asrda muvaffaqiyatga tayyor bo‘lgan yuqori sifatli bitiruvchilarni ishlab chiqaradigan tizimdir.

### **References:**

1. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
2. <https://kun.uz/uz/news/2018/08/13/ukuvci-va-ukituvci-orzusi-finlandia-talim-tizimi>
3. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi>
4. xushnubek telegram kanali